

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI BELARUS-O'ZBEKISTON
QO'SHMA TARMOQLARARO AMALIY TEXNIK
KVALIFIKATSIYALAR INSTITUTI**

KOCHKAROVA DILNOZA AXMADBAYEVNA

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Kochkarova Dilnoza Axmadbayevna

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik
madaniyatini takomillashtirish..... 3

Кочкарова Дильноза Ахмадбаевна

Совершенствование организаторской культуры студентов
технических высших образовательных учреждений..... 25

Kochkarova Dilnoza Axmadbaevna

Improving the organizational culture of students of technical
higher education institutions..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI BELARUS-O'ZBEKISTON
QO'SHMA TARMOQLARARO AMALIY TEXNIK
KVALIFIKATSIYALAR INSTITUTI**

KOCHKAROVA DILNOZA AXMADBAYEVNA

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped3826 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) tilda Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuzlikayev Farit Rafailovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailova Zuxra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatov Dilmurad Narmuratovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "26" 06 soat 19⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bmm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bmm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "09" iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil "19" 06 dagi 23 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

N.K.Haqqazarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Ya.O'Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, iste'molchilar talablarining ortib borishi, yangi avval qo'llanmagan tashkilotchilik qarorlari asosida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan kreativ tafakkurni shakllantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu mutaxassislarning potensial imkoniyatlaridan yuqori darajada ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik bilan foydalanish, mazkur muammoni hal etishining tobora istiqbolli yo'nalishlarini takomillashtirish, innovatsion tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish, ularni tanqidiy va kreativ fikrlash hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish texnologiyalarini takomillashtirish, ularning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Mehnat xulq-atvorining madaniy tomonlarini o'rganish, uning nafaqat metodik, balki amaliy ahamiyatini asoslash, tashkilotchilik madaniyatining boshqaruv tizimidagi o'rnini baholashga oid tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yurita va qarorlar qabul qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, talabalar tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir"¹ degan fikr ustuvor etib belgilandi. Natijada, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-5847-son qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-oktyabrdagi "Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish" masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo‘llari“ ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda tashkilotchilik ta’limi va tarbiyasining umumiy nazariyasi hamda metodikasi, uzviyligi va uzluksizligi A.X.Abdulazizov, M.B.Djabbarov, A.M.Kadirov, J.Mamatqosimov, A.Q.Munavvarov, A.G.Muminov, U.X.Nigmadjonov, M.X.Saidov, M.Usmonov, B.X.Xodjayev, N.M.Egamberdiyeva va boshq.; ta’lim muassasalarida tashkilotchilik tarbiyasiga ijobiy va salbiy tajribani tanqidiy tahlil qilish yuzasidan R.X.Djurayev, M.H.Saidov, X.M.Tojiboyeva, I.B.Xushmurodova va boshq.; madaniyat fenomeni K.X.Abduraxmanov, M.Abduraxmonov, R.A.Abduxairov, D.X.Aminova, M.Imomnazarov, Z.K.Ismailova, O.Musurmonova, N.Raxmonov, A.Haydarov, A.A.Xodjayev, I.J.Yo‘ldoshev, F.R.Yuzlikayevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridan N.N.Alova, L.M.Bazavlutskaya, V.V.Gorbatov, A.L.Karpova va boshqalar talabalarda tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish; K.F.Zavershinskiy, Yu.A.Klovov, A.L.Kryber, E.A.Orlov, L.V.Faleyeva va boshqalar ta’lim muassasalarida tashkilotchilik tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorij mamlakatlar ta’limida talabalarning ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish B. Bettelhaym, X.Gardner, K.Ghosh va boshqalarning tadqiqot ishida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningek, xorij ta’limida talaba yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish kabi masalalar M.Veber, V.Kanke, B.E.Rierdon, E.R.Torrance, F.Taylor, H.Fayol, O.Shpengler kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlar ishlarini e’tirof etgan holda, aytish mumkinki, ularning ishlarida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yo‘qligini ko‘rsatdi. Mazkur muammoning dolzarbligi va amaliy zarurati tadqiqot mavzusini “Texnika oliy muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish” deb nomlashimizga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutining 2022-yil 15-noyabrdagi IL-4821091578 - sonli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-236-raqamli “Intellectual mobillik: oliy ta’limni xalqaro darajaga olib chiqishni institutsional modellashtirish” nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2022-yil noyabr oyidan 2024-yil oktyabr oyigacha).

Tadqiqotning maqsadi texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar majmuasini ishlab chiqish, nazariy asoslash va eksperimental sinovdan o'tkazish hamda tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ilmiy asoslash;

texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini loyihalashtirish asosida talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

bo'lajak mutaxassislarning ta'lim jarayonida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning tamoyillarini ishlab chiqish;

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayonini tafakkur va xulq-atvor madaniyatini faoliyatli yaxlit uyg'unlashtirish asosida tizimlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinovda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Farg'ona davlat politexnika instituti hamda Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutining 362 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid falsafiy, sotsiologik, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, so'rovnoma, test, intervyu, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari motivatsion, aksiologik, kognitiv, faoliyatli, refleksiv komponentlar, turli xil madaniyat na'munalarini o'zida aks ettirgan inson madaniyati fenomeni hamda madaniy an'analarni umumlashtirishga ustuvorlik berish asosida tizimlashtirilgan;

talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modeli yakka tartibdagi ishlarni tashkil qilish, ichki va tashqi ta'lim motivlarini diagnostik loyihalashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan intellektual bilishga oid, qadriyatli va kreativ mezonlarni diagnostikalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak mutaxassislarning tashkilotchilik madaniyati texnologik, uzluksizlik, majmuaviylik, tizimlilik, obyektivlik tamoyillarini uyg'unlashtirish hamda dinamik

monitoring ko'rsatkichlarini baholash va tashkilotchilik protseduralarini ichki kafolatlashtirish asosida shakllantirilgan;

talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayonlari madaniyatshunoslikka oid, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, individual (yakka tartibda) yondashuvlarni axloqiy va ijtimoiy mobillik, shaxsiy intellektual sifatlarini tafakkur va xulq-atvor madaniyatini faoliyatli yaxlit uyg'unlashtirish asosida tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning modeli yondashuvlar, tamoyillar, shart-sharoitlar, vositalar, komponentlar, mezonlar va darajalarni belgilash asosida ishlab chiqilgan;

texnika yo'nalishi talabalari uchun "Основы психологии и педагогики" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan "Основы психологии и педагогики" nomli namunaviy fan dasturi, ishchi dastur va o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Технология формирования организаторской культуры студентов технических вузов" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlarning ishlariga asoslanilgani, tadqiqot vazifalariga mos keladigan, o'zaro bir-birini to'ldiradigan tadqiqot metodlari qo'llangani, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanilgani, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlangani, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq qilingani, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari aniqlangani, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modeli takomillashtirilgan, uning tuzilmasi aniqlashtirilgani, tarkibiy qismlarining mazmuni yoritilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modeli ta'lim amaliyotiga joriy qilingani bilan izohlanadi. Olingan natijalardan texnika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishda, yangi avlod adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari motivatsion, aksiologik, kognitiv, faoliyatli, refleksiv komponentlar, turli xil madaniyat na'munalarini o'zida aks ettirgan inson madaniyati fenomeni hamda madaniy an'analarni umumlashtirishga oid takliflar asosida "Основы психологии и педагогики" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 697931-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini ishlab chiqish shartlari kengaytirilgan;

talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modeli yakka tartibdagi ishlarni tashkil qilish, ichki va tashqi ta'lim motivlarini diagnostik loyihalashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan intellektual-bilishga oid, qadriyatli va kreativ mezonlarni diagnostikalashga oid takliflar 01-236-raqamli "Yangi avlod darsliklari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash metodikasini ishlab chiqish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika institutining 2024-yil 25-iyundagi 01-329 sonli buyrug'i). Natijada, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga erishilgan;

bo'lajak mutaxassislarining tashkilotchilik madaniyati texnologik, uzluksizlik, majmuaviylik, tizimlilik, obyektivlik tamoyillarini uyg'unlashtirish hamda dinamik monitoring ko'rsatkichlarini baholash va tashkilotchilik protseduralarini ichki kafolatlashtirish asosida shakllantirilganga oid takliflar asosida "Основы психологии и педагогики" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 697931-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modelini qo'llash samaradorligi oshgan;

talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayonlari madaniyatshunoslikka oid, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, individual (yakka tartibda) yondashuvlarni axloqiy va ijtimoiy mobillik, shaxsiy intellektual sifatlarni hamda tafakkur va xulq-atvor madaniyatini faoliyatli yaxlit uyg'unlashtirish asosida tizimlashtirishga oid takliflar 01-236-raqamli "Yangi avlod darsliklari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash metodikasini ishlab chiqish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika institutining 2024-yil 25 iyundagi 01-329 sonli buyrug'i). Natijada, talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish mezonlarini ishlab chiqishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy, jumladan, O'zbekiston respublikasi OAK tomonidan doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 3 ta xorijiy va 2 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar, zamonaviy sharoitlarda ta'limga oid bilim asoslarini egallashga qiziqishni belgilab beradigan xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikada shakllangan an'analar talabalarning samarali tashkilotchilik funksiyasini takomillashtirish bilan bog'liq mantiqiy talabni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim va tarbiya berish jarayonini tashkilotchilik funksiyasi yordamida tashkil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Keyingi vaqtda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi yangi ta'lim va tarbiya texnologiyalardan intensiv foydalanish bilan ajralib turibdiki, buning uchun talabalarning tashkilotchilik madaniyatini intensivlashtirish zarur.

Madaniyat fenomeni yuzasidan respublikamiz olimlaridan K.X.Abduraxmanov, R.A.Abduxairov, M.Abduraxmonov, M.Imomnazarov, Z.K.Ismailova, L.M.Moyli, O.M.Musurmonova, N.Raxmonov, A.A.Xodjayev, F.R.Yuzlikayev va boshq., Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari A.I.Arnoldov, N.M.Boritko, M.S.Kagan, A.Karpova, K.Klakxon, A.Kreber, E.S.Markaryan, I.Niderman, E.Sepir, K.D.Uissler va boshqalar o'rgangan. Biroq hanuzgacha mazkur tushunchaning yagona talqini mavjud emas, bugungacha uning 500 dan ortiq ta'rifi qo'llaniladi.

Shunday qilib, tadqiqot mavzusining dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan izohlanadi: ijtimoiy-iqtisodiy – zamonaviy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda mutaxassislar professionalizmiga talablarning tobora ortib borishi; metodik-texnologik – texnika oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarda va talabalarda tashkilotchilik madaniyatini samarali takomillashtirish imkoniyatini beradigan texnologik vositalarini samarali qo'llash zarurati; nazariy-metodologik – texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish zarurati.

“Tashkilotchilik madaniyati” tushunchasi tarbiya orqali shakllantirilgan e'tiqodlarda jamlangan bo'lib, bu kelajakda mutaxassis bo'lishi kerak bo'lgan talaba

nafaqat madaniyat tashuvchisi, balki kelgusidagi qo‘l ostidagi xodimlarga namuna sifatida gavdalanishi bilan maydonga chiqadigan texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun juda muhim. Tashkilotchilik madaniyati tufayli ko‘p jihatdan zamonaviy ijtimoiy hayot tarzi shakllanadi. U tarbiya tizimining barcha elementlari, shuningdek, alohida xodimlar, jamoa va umuman jamiyatning kommunikativ faoliyatining har bir usuli, turi va shakli uchun xos. Jamiyat muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uning a‘zolarida “tashkilotchilik madaniyati” tushunchasi tarkibiga kiradigan sifatlar: tavakkal qilish qobiliyati, ijodiy faollik, qaror qabul qilish mas’uliyati, sheriklarga hurmat va boshqalarni tarbiyalash zarur. Biroq texnika oliy ta‘lim muassasalari uchun ta‘lim dasturlarida buni hamma vaqt ham uddalab bo‘lmaydi. Bu ilmiy-metodik ishlanmalar yetarlicha tizimlashtirilmagani bilan bog‘liq.

Tadqiqotimiz doirasida biz quyidagi farazga tayandik: texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyati – shaxsning murakkab, integrativ, amaliy yo‘naltirilgan, ma‘naviy-tashkilotchilik jihati bo‘lib, quyidagi shartlar bajarilganda amalga oshirilishi mumkin: talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayoniga qator: hissiy, qadriyatli, intellektual va amaliy komponentlar kiritilganida; tashkilotchilik madaniyati talaba uchun kasbiy ehtiyojga aylanganida; tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayoni nafaqat an‘anaviy, balki talabalarning egallagan bilimlarini kelgusida hamkasblariga pedagogik imkoniyatini yaratish uchun maxsus kurslardan foydalanishni nazarda tutganida.

“Talabalarning tashkilotchilik madaniyati” tushunchasiga ta‘rif berayotib, ta‘kidlash zarurki, bugungi kunda uni insonga tashkilotchilik munosabatlari obyekt va subyekt sifatida ijtimoiy rollarni amalga oshirish imkonini beradigan, zamonaviy pedagogikada obyekt va subyekt sifatidagi ishtirokni ta‘minlaydigan, umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish jarayoni komponentlari sifatida uning prinsiplari, maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shakllari va metodlarini ko‘rsatish mumkin. Tashkilotchilik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tashkilotchilik komponentlarini alohida ajratib ko‘rsatish o‘rinlidir (1-rasm).



1-rasm. Tashkilotchilik komponentlari

Motivatsion komponent – ijtimoiy yo‘nalgan tashkilotchilik faoliyati; tashkilotchilik motivatsiyasi, qadriyatlari va ustanovkalari yig‘indisi; amalga oshirilgan tashkilotchilik faoliyati uchun ijtimoiy mas’uliyat. Tashkilotchilik

muammolarining mazmuni va ahamiyatini, ularning tashkilotchilik faoliyatining yuridik normalar va ma'naviy-axloqiy asoslar bilan o'zaro aloqadorligini tushunish bilan bog'liq.

Aksiologik komponent – umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish asosida talabalarning tashkilotchilik madaniyatini yuksaltirish demakdir.

Faoliyatli komponent – ta'lim va hayotiy masalalarni hal qilish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi. Tashkiliy munosabatlardagi harakatlar, bilimlarni amaliyotda usullarini qo'llash, tashkiliy faoliyatda ishtirok etish.

Kognitiv komponent – shaxsning tashkilotchilik tafakkuri va tasavvurlari. Jamiyat, davlat, mintaq va oilada pedagogik munosabatlarga oid faktlar, tushunchalar va g'oyalar mohiyatini tushunish va anglash, tashkilotchilik mazmunida fikrlash, tashkilotchilik kompetensiyalari tizimi, tashkilotchilikka oid yo'nalganlikni tashxislash uchun zarur bazaviy tashkilotchilik bilimlarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Refleksiv komponent – talabaning o'z ta'lim tajribasini, faoliyati natijalarini, shuningdek, o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini ongli ravishda tahlil qilish va baholash qobiliyatidir.

Talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishdagi jiddiy to'siqlar texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining kattagina qismi passiv ekani, o'zining tashkiliy ishlarini tashkillashtirish tajribasiga ega emasligi, mehnat natijalarini tahlil qilish va baholash, tashkilotchilik faoliyatiga kirisha olmasligi ma'lum bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jamiyati ta'lim tizimida tashkilotchilik madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda, bu tashkiliy o'quv-tarbiyaviy jarayonda yondashuvlarga o'zgartirish kiritish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Yangi tashkilotchilik madaniyatining takomillashishi "Основы педагогики и психологии" nomli o'quv qo'llanmaning zamonaviy mohiyati bilan bog'liq bo'lgani sababli tashkilotchilik madaniyatini zamonaviy pedagogik hodisa sifatida takomillashtirish jarayonini tadqiq qilish muhimdir. Texnika oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim tizimi talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish yo'nalishida yangi ijodiy yondashuv va konseptual-mazmuniy shakllarni talab etadi.

Zamonaviy pedagogika konsepsiyasi hayotiy faoliyatning barcha sohalarida asos sifatida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga intilishi bilan ajralib turadi. Hamma konsepsiyalar qator komponentlar, jumladan, tashkilotchilik komponentlarini ham o'z ichiga oladi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini tarbiyalashning ajralmas qismi – tashkilotchilikka oid ta'lim hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar tashkilotchilik madaniyati aslida ta'lim (ma'lumot) – to'plangan bilimlar ekani haqida ta'riflaydi. Tashkilotchilikka oid ta'lim tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish va tashkiliy shaxsiy ta'limning asosidir. Qobiliyatli tashkilotchi talaba bir paytning o'zida umumiy va o'ziga xos sifatlarga ega bo'lishi lozim. Tashkilotchi talabaning umumiy sifatlari quyidagilardan iborat: uyushganlik (o'z faoliyatini rejalashtira olish, o'zini zarur tartibga bo'ysundira olish, jamlanganlik va izchillikni namoyon qila olish); aqlning amaliyligi (tajriba va

bilimlarni hayotiy amaliyotda qo'llash qobiliyati); kuzatuvchanlik (detallarni yodda saqlab qolish, muhimini ta'minlash); muloqotchanlik (muloqotga tayyorlik, ochiqlik, odamlar bilan aloqa qilish ehtiyoji) va h.k.

Tashkilotchilik jarayonini samarali tashkil etishning real omili uning tizimli tabiatini tushunib yetishdan iborat. "Tizim" tushunchasining o'zi nafaqat yaxlitlik haqida tasavvur hosil qilish, balki uning asosiy komponentlarini ajratish imkonini beradiki, aynan shu uning birinchi belgisi sanaladi. Bunda ta'lim jarayonida nafaqat uning komponentlari, balki ular orasida paydo bo'ladigan yoki yo'qoladigan aloqadorliklarni ham ajratish juda muhim. Shunday qilib, tizimning ikkinchi belgisi tuzilmaning mavjudligidir. Tizimning uchinchi belgisi uning integrativligi bo'lib, u har bir komponent uchun ma'lum individual tavsif va xususiyatlar xosligida o'z ifodasini topadi, ular o'zaro ta'sir etib, tizimning yangi integrativ xususiyatini hosil qiladi. Mazkur xususiyatning barqarorligi tizimli yaxlitlik bilan belgilangan bo'ladi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida tashkilotchilik jarayoni tizimining to'rtinchi xususiyati – uning tashqi muhit bilan yaqin o'ziga xos hamkorligida namoyon etiladi. Ta'lim tizimini samarali tashkil etish zarur axborotning ishonchliligiga bevosita bog'liq bo'lib, u "raqamli pedagogika" deb nom olgan. Pedagogika va ijtimoiy fanlarda axborot, odatda, talabalar bilan pedagoglar o'rtasida muloqotning kommunikatsion vositasi yoki tizim va atrof-muhit qanday holatda ekani haqidagi ma'lumotlar kompilyatsiyasi sifatida qaraladi.

Tashkilotchilik tizimida axborotdan foydalanish axborotning yetishmasligi yoki uning ortiqchaligi bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklarga olib keladi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida axborot, bir tomonlama, boshqacha aytganda, uning o'rttirilishi tarzida qaralmasligi lozim. Tushunish lozimki, tartiblanmagan axborotning katta miqdori yoki uning mavjud emasligi qaror qabul qilish va uni bajarish bilan bog'liq jarayonni murakkablashtiradi. Tashkilotchilik tizimini amalga oshirish uchun istalgan axborot muhim hisoblanadi, axborot birinchi darajali sanaladiki, tizim optimal faoliyat yuritishi mumkin emas.

Shunday qilib, tashkilotchilik tizimining mavjudligi qo'yilgan maqsadlarga qat'iy belgilangan vaqtda ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq erishish uchun zarurdir. Faqatgina zarur pedagogik va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud bo'lganidagina tashkilotchilik tizimi to'g'ri faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'ladi, bu erishilgan natijalar darajasi bilan tavsiflanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan bo'lib, u pedagogik ta'lim jarayonida tashkilotchilik madaniyatining turli o'zaro ta'sirlari quyidagilardan iborat bo'lgan turli o'zaro bog'langan vazifalardan (funktsiyalar) tarkib topadi: tashkil etish, rejalashtirish, pedagogik tahlil, tartibga solish, nazorat.

Talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bir qator shartlarga rioya qilinganida samarali kechadi: kasbiy tayyorgarlik mazmunini pedagogik fanlar va mutaxassislik fanlari mazmuniga tashkilotchilikka yo'naltirilgan komponentlarni kiritish hisobiga boyitish (amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida vaziyatli tahlil va maxsus tashkilotchilik vazifalarini hal qilish); tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bilan nafaqat


pedagoglar, balki maxsus fanlar o'qituvchilari ham shug'ullanishi; tashkilotchilik sifatlari va tafakkurini rivojlantirishda pedagoglarning hamkorligi; tadqiqotchilikka yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishning o'qishdan tashqari shakllarini kengaytirish (talabalar bilan tashkilotchilik faoliyatiga oid turli ijodiy tanlovlarni tashkil etish). Shu bilan bir qatorda talabalarning intilishlari, istaklarini qondirish imkoniyati ularni tarbiyalash va rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuch ekanligini hisobga olish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tashkilotchilik madaniyatining qanchalik samarador ekanini ikkita prinsipial o'zaro bog'liq qism yig'indisidan kelib chiqib, aniqlash mumkin: birinchisi muayyan mintaqada ta'lim xizmatlariga talabning intensivligi va xarakteriga bog'liq, ya'ni ta'lim xizmatlarining sifati bitiruvchilarning mehnat bozorining bir qismiga aylana olish qobiliyati va "ijtimoiy foyda" ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi; ikkinchisi xizmatning ichki holati bahosini o'zida aks ettiradi, u texnika oliy ta'lim muassasalarining hayotiy faoliyatini belgilab beradigan o'quv dasturi, talabalar va pedagogik tarkib, tashqi va ichki muhitdan tashkil topadi. Yuqorida ko'rsatilgan jihatlariga tayangan holda texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning aniq modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang). Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning pedagogik modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan: maqsadli blok, tashkiliy-metodologik blok, jarayonli blok va natijaviylik bloki.

Maqsadli blok – texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishning maqsad va vazifalarini o'z ichiga olib, bunda asosiy maqsad talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga qaratiladi va vazifalar belgilab olinadi.

Tashkiliy-metodologik blok – tadqiqot jarayonida o'rganilayotgan muammoni tadqiq qilish uchun tobora yuqori salohiyatga ega bo'lgan nazariy-metodologik yondashuvlar: madaniyatshunoslikka oid, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, individual (yakka tartibda ishlarni tashkil etish) aniqlandi. Bu yondashuvlar tadqiq qilinayotgan muammoni tobora aniq belgilash va uni hal qilish bo'yicha takliflarni asoslash imkonini beradi. Ushbu blokda texnologik, uzluksizlik, majmuaviylik, tizimlilik, obyektivlik tamoyillaridan foydalanildi.

Talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashishiga pedagogik yordamni amalga oshira borib, pedagoglar mazkur jarayonning samaradorligi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bugungi kunda olimlar shart-sharoitlarning rang-barang qatorini ajratib ko'rsatadi: pedagogik, tashkiliy, psixologik birikmalari ham mavjud.

Tadqiqotimizda *tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar* ajratilib, ularni ta'lim jarayonida realizatsiyalanadigan va bo'lajak mutaxassislarning tashkilotchilik madaniyatining barcha komponentlarini tegishli darajada o'zlashtirishi va ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni ta'minlaydigan muayyan amaliy yo'naltirilgan tadbirlar sifatida qaraymiz. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar sirasiga quyidagilar kiradi: tuzilishini aniqlash, ijodiy topshiriqlar va mashqlar berilishi, ichki va tashqi motivatsiya, o'rganishga-idrok etishga qiziqishni rag'batlantirish, pedagog va talabalarining tashkiliy faoliyatni rivojlantirishga tayyorligi.



2-rasm. Talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish modeli

Talabalarning o'z tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish motivlari faqat o'quv davomida kelgusi kasbiy faoliyatni amalga oshirishda tashkilotchilik madaniyatining zarurligini anglab yetganidagina namoyon bo'ladi. Ya'ni, faqat anglab yetilgan ehtiyoj va uni qanoatlantirish motivatsiya bosqichidan o'tib, bevosita amaliy harakatga o'tganidagina motiv bo'la oladi. Shu sababli jamlikda talabalarning motivatsiya sohasini tashkil qiladigan va faoliyatni tashkil etadigan hamda talabalarni faol xulqqa undaydigan motivatsiya natijasini motiv sifatida baholaymiz. Bizningcha, talabalar uchun ulardan bo'lajak kompetent mutaxassislar sifatida harakatlarni talab qiladigan topshiriq, mashq va vaziyatlarnigina emas, balki ulardan tashkilotchilik intuitsiyasi, takt, eruditsiya, bag'rikenglik, improvizatsiya elementlarini talab etadigan topshiriq, mashq va vaziyatlarni tanlash zarur.

Jarayonli blok doirasida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish maqsadida bir nechta interfaol metodlar, ya'ni: keys-study, veb-kvest, kartochka, g'oyaviy charxpalak, panelli munozara, ishbilarmon o'yinlar, viktorina, impuls-plakatlardan tashkil topgan metodlardan foydalandik. Pedagogik modelda talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon shakllari sifatida quyidagilar keltirildi:

Tashkiliy baholash – talabalarning tashkilotchilik madaniyatini tashkiliy baholash ularning tashkilotchilik qobiliyatlarining turli jihatlarini tahlil qilish va o'lchashni o'z ichiga oladi shuningdek talabalarning kuchli va zaif tomonlarini hamda rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga, o'quv dasturlari va faoliyatini ularning ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi.

Tashkilotchilik protseduralarini ichki kafolatlashtirish – talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirishda tashkiliy tartib-qoidalarni ichki ta'minlashda ilmiy ta'lim va amaliy faoliyat elementlarini birlashtirgan o'quv majmuasini yaratish bilan bog'liq.

Konferensiya, tanlov, guruhli, individual – talabalarning tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish oid dunyoqarashini kengaytirishga, boshqa talabalar bilan hamkorlik qilish, jamiyatda xulq-atvor me'yorlariga amal qilish qobiliyatini oshirishga va ularning bilim hamda madaniy saviyasini yuksaltirishga xizmat qildi.

Natijaviylik blokida baholash mezonlari va darajalari keltirilgan bo'lib:

1) Natijaviylikni baholash mezonlari: intellektual-bilishga oid, qadriyatli va kreativ.

2) Natijalarni baholash darajalari: past, o'rta va yuqori qilib belgilab olindi. Natija sifatida talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashganlik darajasini oshirishini keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot doirasida takomillashgan model o'z oldiga aniq maqsadni belgilab olgan, ya'ni texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan pedagogik shartlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish samaradorligi**" deb nomlanib, ushbu bobda pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va mazmuni

yoritilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari o'quv-tarbiyaviy faoliyatda qo'llaniladigan yangi mazmun, texnologiya, tashkiliy shakl, ta'lim metodi va vositalarining sabab va oqibat bog'lanishlarini o'rganish asosidagi qiyosiy samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etiladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari uch bosqichni o'z ichiga oldi: birinchi bosqich – aniqlovchi bosqich (2021-2022 o'quv yili), ikkinchi bosqich – shakllantiruvchi bosqich (2022-2023 o'quv yili), uchinchi bosqich – umumlashtiruvchi bosqich (2023-2024 o'quv yili).

Tajriba-sinovda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Farg'ona davlat politexnika instituti hamda Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutining 362 nafar 1-2-bosqich talabarlari ishtirok etgan.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bilimlarini aniqlash maqsadida test savollari hamda so'rovnomalar tarqatildi. Test savollari va so'rovnomalarning natijalariga ko'ra, har bir ta'lim muassasalarida talabalarining tashkilotchilik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha boshlang'ich bilimlari yetarli emasligi va ularni bilim darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Tajriba-sinov ma'lumotlarni olish uchun tadqiqot mavzusiga oid uslubiy, me'yoriy va maxsus adabiyotlar o'rganilib, tahlil qilindi va talabalarining o'quv faoliyati nazorat qilindi, talabalar bilan so'rovnomalar o'tkazildi. Tajriba-sinov uchun texnika oliy ta'lim muassasalarining guruhlarini tanlanib, ular ikkiga bo'lindi. Ularning biri tajriba, ikkinchisi esa, nazorat guruhiga ajratildi.


Aniqlash bosqichi davomida olingan natijalarga ko'ra, sinaluvchi talabalar ko'pchiligining tashkilotchilik madaniyati takomillashganligi past darajaga mos keldi: 63,93% (tajriba guruhi) va 64,25% (nazorat guruhi). Talabalarining 26,23% (tajriba guruhi) va 28,49% (nazorat guruhi)ida tashkilotchilik madaniyati takomillashganligi o'rta darajaga mos keldi, bu esa, ularning olingan axborotni namunaviy xarakterdagi tashkilotchilik vaziyatlarida qo'llab, mustaqil qayta yaratish qobiliyatidan dalolat beradi. Aniqlovchi tajriba-sinov natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Aniqlovchi tajriba-sinov natijalari


Guruhlar	Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining tashkilotchilik madaniyatining takomillashganlik darajalari		
	Past	O'rta	Yuqori
Nazorat (179 nafar talaba)	64,25% (115 nafar talaba)	28,49% (51 nafar talaba)	7,26% (13 nafar talaba)
Tajriba (183 nafar talaba)	63,93% (117 nafar talaba)	26,23% (48 nafar talaba)	9,84% (28 nafar talaba)

